



“KALILA VA DIMNA” ASARIDAGI IJTIMOIIY, AXLOQIY, SIYOSIY QARASHLAR

Eshnazarova Madina Ilhom qizi

SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Qahhorova Feruza Yorqin qizi

SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi

Ilmiy rahbar: SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrası

O‘qituvchisi Jahongir Toshniyozovich Ibragimov

e-mail: Jahongir.5066@gmail.com

Annotatsiya: **Kalila va Dimna** – adabiy yodgorlik. „Panchatantra“ va „Xitopadesha“ kabi qadimgi hind og‘zaki ijodi zaminida vujudga kelgan, uning aniq, yozilgan vaqti ma‘lum emas. Asar shahzodalarga ta‘lim-tarbiya berishga mo‘ljallangan bo‘lib, nasihat ruhida yozilgan. Unda ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va maishiy masalalar, asosan, majoziy yo‘l bilan 2 shag‘ol (chiyabo‘ri) – Kalila va Dimna (sanskritcha Kartak va Damnako, paxlaviyda Kalilak va Dimna) munozarasi shaklida bayon etiladi. Asrlar davomida asarning hajmi va shakli o‘zgarib borsa ham, uning asosiy g‘oyasi saqlanib kelgan. U adolat va ezgulikni targ‘ib qiladi. Yovuzlik, yomonlikdan saqlanishga da‘vat etadi. Yaxshilik va insoniy fazilatlarga, ulug‘vor intilishlarga chorlaydi.

Kalit so‘zlar: adolat, ezgulik, yovuzlik va yomonlik, insoniy fazilatlar, ulug‘vorlik nasihat, hikmat, ta‘lim- tarbiya

Аннотация: Калила и Димна – литературный памятник. Оно возникло на основе древнеиндийских устных произведений, таких как Панчатантра и Хитопадеша, точное время его написания неизвестно. Произведение предназначено для просвещения князей и написано в духе советов. В нем социальные, политические, нравственные и бытовые вопросы описываются, главным образом, в метафорическом ключе, в форме диспута двух шаголов (чиябори) - Калилы и Димны (Картак и Дамнако на санскрите, Калилак и Димна на пехлеви). Хотя размеры и форма произведения менялись на протяжении веков, основная его идея сохранилась. Он пропагандирует справедливость и добро. Зло призывает избегать зла. Он призывает к добру и человеческим качествам, к благородным стремлениям.



Ключевые слова: справедливость, добро, зло и зло, человеческие качества, величие, совет, мудрость, образование.

Abstract: Kalila and Dimna - a literary monument. It originated from ancient Indian oral works such as Panchatantra and Hitopadesha, the exact time of its writing is unknown. The work is intended to educate princes and is written in the spirit of advice. In it, social, political, moral and household issues are described, mainly in a metaphorical way, in the form of a debate between 2 shagols (chiyabori) - Kalila and Dimna (Kartak and Damnako in Sanskrit, Kalilak and Dimna in Pahlavi). Although the size and shape of the work have changed over the centuries, its main idea has been preserved. He promotes justice and goodness. Evil urges to avoid evil. It calls to goodness and human qualities, to noble aspirations.

Key words: justice, goodness, evil and evil, human qualities, greatness, advice, wisdom, education

Kalila va Dimna bu asardagi hikmatlar hayvonlar tilidan olib borilsada, ijtimoiy hayot, odamlar orasidagi munosabatlar ko'zda tutiladi. Asarda voqelikdagi salbiy hodisalarga qarshi o't ochiladi, adolat, odamgarchilik tarannum etiladi. Unda o'sha jamiyatdagi barcha nuqsonlar, xiyonat va jinoyat, pastkashlik, ig'vo, fisq-fasod, zulm dahshat fosh qilinadi. «Kalila va Dimna» asarida «Shohlar saroyiga yaqin odamlarning ishi ig'vo, hasad, adovat, chaqimchilik va bir-birini yomonlashdan iboratdir. Kecha-kunduz ular bir-birlarining payiga tushib, bir-birlarini g'iybat qiladilar. Kim iste'dodli bo'lsa, uning haqida shuncha ko'p mish-mishlar to'qiydilar», - deb yozilgan. «Kalila va Dimna» asari boshdan-oyoq g'oyat qiziqarli va ibratli, shaklan juda boy, badiiy, mazmunan hayratli hikmatlar, hikoyalar, masallar, naqlar, rivoyatlar, aforizmlar bilan to'la bebaho xazinadir. adabiy yodgorlik. „Panchatantra“ va „Xitopadesha“ kabi qad. hind og'zaki ijodi zaminida vujudga kelgan, uning aniq, yozilgan vaqti ma'lum emas. Asar shahzodalarga ta'lim-tarbiya berishga mo'ljallangan bo'lib, nasihat ruhida yozilgan. Unda ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va maishiy masalalar, asosan, majoziy yo'l bilan 2 shag'ol (chiyabo'ri) –¹ Kalila va Dimna (sanskritcha Kartak va Damnako, paxlaviyda Kalilak va Dimna) munozarasi shaklida bayon etiladi. „Kalila va Dimna“ VI-asrda Eron shohi Xusrav Anushirvon (531—79) buyrug'iga binoan, uning shaxsiy tabibi Barzuya tomonidan Hindistondan keltirilgan va paxlaviy tiliga tarjima qilingan. VIII-asrda mashhur adib Abdulloh ibn al-Muqaffa (721—57) pahlaviydan arab

¹ Kalila va Dimna: Hikmatnoma, Suyima G'aniyeva tarjimasi. – Toshkent: Istiqlol, 1994, 256b



tiliga, undan Rudakiy fors tiliga nazm bilan tarjima qilgan. Husayn Boyqaro davrida Husayn Voiz Koshifiy forscha tarjima qilib, uni „Anvori Suhayliy“ deb nomlaydi. Asarning fors tiliga o‘g‘irilgan nusxasi XVI-asr oxirida qayta ishlangan. Uni eski o‘zbek tiliga Muhammad Mulla Niyoz (1837), Fazlulloh qori Almaiy tarjima qilishgan. Almaiy tarjimasi 3-marta nashr etilgan (1910—13). Asar hozirgi o‘zbek tilida bir necha bor nashr etilgan. Bu asar necha asrlarki, hikmat va masallar bobida munosib o‘rin egallab kelmoqda. Xalq hayoti, dardi, ahli donishlar ulug‘vorligi, hozirjavoblik, donolik aks etgani uchun ham "Kalila va Dimna" ta’rif va tavsifga ega. Undagi masallar, hikmatlar mag‘zi insoniylik, olijanoblikni ulug‘laydi. Tarbiyaviy ahamiyati jihatidan ham ushbu bebaho asar bugun-da o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

“Podshoh va uning sevimli lochini”Hikoyat. Xotini dedi: - Ilgari zamonda ovni juda yaxshi ko‘radigan podshoh bo‘lgan. U podshohning lochini bo‘lib, uning parvozi baland, ko‘zi o‘tkir va panjalari temirdek edi. Podshoh uni juda sevar va doim o‘z qo‘li bilan boqar edi. ²Bir kuni shoh uni qo‘liga qo‘ndirib ovga jo‘nadi. Cho‘lda uning oldidan bir ohu chopib o‘tdi. Podshoh uning orqasidan shunday tezlik bilan ot choptirib ketdiki, mulozimlari orqada qolib ketdilar. Podshoh juda chanqab, bir tog‘dan oqib tushayotgan zilol suv yoniga keldi. U shu suvdan +ichmoqchi bo‘lib, suvdonni to‘latgan ham ediki, qush qanot qoqib suvni to‘kib yubordi. Shohning jahli chiqib, yama suvdonni to‘ldirdi. Bu daf‘a ham lochin qanoti bilan idishni ag‘darib yubordi. Podshoh darg‘azab bo‘lib lochinni yerga urib halok qildi. Shu vaqtda uning bir mulozimi kelib qoldi. Podshoh unga dedi: - Tog‘dan tushayotgan bu zilol suv tomchilaridan suvdonni to‘ldirish uchun ancha vaqt kerak ekan. Sen yuqoriga chiqib buloqning o‘zidan tezda suv olib tush. Mulozim tog‘ga chiqdi. Qarasa, u yerda bir kichkina buloqcha bo‘lib, uning labida bir haybatli ajdaho o‘lib yotgan ekan. Kun harorati ta’sir qilib, undan qatra-qatra zahar suvga tomayotgan ekan. Mulozim darhol tog‘dan tushib, ko‘rganlarini podshohga aytib berdi. Shoh uning so‘zini eshitib, yig‘lay boshladi. Mulozim so‘radi: - Yig‘ingizning sababii nimadir?

Podshoh chuqur uh tortib, bo‘lgan voqeani aytib berdi.

Mulozim dedi: - Ey shohim, bu ishni shoshilmay, o‘ylab qilishingiz kerak edi.

Shoh dedi: - Qilib qo‘ygan ishimdan nihoyatda pushaymonman, lekin foydasi yo‘q. O‘lgunimcha bu jarohat ko‘ksimdan ketmaydi. Qissadan hissa shuki, hech bir ish shoshilib, o‘ylamasdan qilinmaydi. Chunki shoshilinch bilan qilingan ishning oqibati faqat pushaymonlikdir. Hozirgi kunga qiyoslaganda odamlar ijtimoiy hayotdagi har bir narsaga osonlik bilan erishishni xohlashadi. Asarning pand nasihat ruhida

² Panchatantra, per. s sanskrita i prim. A.Ya. Sirkina, M, 1958; Panchatantra (I.G‘afurov tarjimasi), T., 1993.



yoziilgani ham keng mazmunli hikoyalari hayotimizga ibratga bo'ladi. Ertak va hikoya shaklida berilgan ibratlardan xulosa chiqarishimiz va uni ijtimoiy hayotda yaxshilik yo'lida ishlatishimiz zarur. Hayotimizda har bir yaxshilikka bo'lishi va yaxshi bo'lishi ham dinimizda aytib o'tilgan. Podshoh ham burgutni ishidan jaxli chiqdi, ammo bu unga yaxshilik olib kelishi yaqqol misoldir. Kalila va dimna asaridagi barcha hikoya va masallar ham yomonlik ortidagi yaxshilikka ishora qiladi. Insonni ruhan tarbiyalaydi. Asar yoziilganiga asrlar bo'lgan bo'lsada ibratlari hozirgi kundagi hayotimizga o'xshash va unga rioya qilish insonni inson qilib tarbiyalaydi.

Tulki bilan nog'ora masali

Deydilarki, bir tulki o'rmon oralab ketayotib, bir daraxtning tagida nog'ora yotganini ko'rib qolibdi. Shamol esgan sari daraxt butoqlari nog'oraga tegar va nog'oradan dahshatli ovozlari chiqar edi. Tulki nog'oraning ovozi yo'g'onligi va jussasining kattaligiga qarab, nog'oraning yog'i bilan go'shti ham ovozi va jussasiga yarasha bo'lsa kerak deb og'zining suvi keldi. Ko'p urinib, nog'orani yorishga muvaffaq bo'ldi. Lekin qurigan teridan bo'lak hech narsa topmagach: „Gavdasi yo'g'on va ovozi baland narsaning ichi bo'sh bo'lar ekan“, – dedi. Bu masal orqali hozirgi jamiyatimizda tarbiyali va tarbiyasiz odamlarni tushunishimiz mumkin. Tarbiyali inson doim o'zini qayerda qanday tutishni biladi va o'ziga tegishli narsalargagina qo'shiladi, ular kamtarin, go'zal xulqqa ega, past ovozda intizomli ravishda gapiradilar. Tarbiyasiz insonlar esa jamoat joylarida keraksiz so'zlarni qo'pol baland ovozda gapirishadi.

Asrlar davomida asarning hajmi va shakli o'zgarib borsa ham, uning asosiy g'oyasi saqlanib kelgan. U adolat va ezgulikni targ'ib qiladi. Yovuzlik, yomonlikdan saqlanishga da'vat etadi. Yaxshilik va insoniy fazilatlarga, ulug'vor intilishlarga chorlaydi. Har bir xalqning olim va faylasuflari qanday vositalar bilan bo'lmasin, o'z orzu va istaklarini amalga oshirmoq, mavjud tartibni intizomga solmoq uchun hamisha fikr yuritganlar, har xil tadbirlar ila ish ko'rmoqchi bo'lganlar, bu haqda har xil asarlar yozmoqqa intilganlar. Shulardan biri qushlarning va yovvoyi, yirtqich hayvonlarning tilidan yozilgan, g'oyat chuqur ma'noli, nafis ramz va muammolarga to'la ushbu kitobdir. Olimlar bu yo'lni tanlab zo'r imtiyozga ega bo'lganlar: avvalo, bu bilan ular xohlagan so'zlarini aytib, har bir bobni orzu qilganlari darajada bezash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Buning ustiga, ular shu yo'l bilan nasihat, hikmat, latifa va hazil-mutoyiba javohirlarini bir-biriga qo'shganlar, toki dono odamlar bu kitobni mutolaa qilib, foydalansinlar, nodon odamlar esa, uni afsona deb o'qisinlar. Yosh shogirdlar esa savodli bo'lmoq, ilm orttirmoq, naql aytmoq maqsadida bu kitobda



yozilganlarni osonlik bilan yodlarida saqlab qolguqidurlar. Katta bo'lib, aql va tajriba egasi bo'lganlarida, yodlab olgan va esda saqlab qolgan naqlar ustida fikr yuritib, ularni tushunganlarida dillari naqadar foydali hikmatlar bilan to'lganligini ko'radilar va o'zlari kutmagan ulkan boylikka bitmas-tuganmas xazinaga ega bo'lganlarini biladilar. Yoshlarning xursandligi katta bo'lganda otasidan meros bo'lib qolgan xazinani topgan va shu tufayli umrining oxiriga qadar qiyinchilik ko'rmasdan yashay olishni bilgan odamning sevinchiga o'xshaydi.³

Xulosa qilib aytganda, bu kitobni o'qiganda uning nima uchun yozilganligi va qanday maqsadlarni ko'zda tutganligini tushunish kerak. Aks holda odam bu kitobdan foyda ololmaydi, uning boyliklaridan bebahra qoladi. Bu kitobni tushunishning birinchi sharti shuki, uni to'g'ri va diqqat bilan o'qiy bilishdir. Zotan, bir narsani diqqat bilan o'qimasdan turib uning ma'nosini tushunmoq mumkin bo'ladimi axir? O'qishni yaxshi biladigan odam bu kitobni o'ylab o'qishi va uning ma'nosiga yetishga shoshilmasligi lozim, chunki uning ma'nosiga odam chuqur o'ylab qiyinchilik bilan erishadi. Naql qilibdurlarkim, bir kishi sahroda xazina topib olibdi va o'z-o'ziga: "Agar bu xazinani bir o'zim tashisam, ko'p vaqtim bekor ketadi, o'zim qiynalib, qaytaga xafa bo'laman. Yaxshisi, bir necha xizmatkor topib, bir necha ulovni kira qilib, biroz muddat ichida xazinaning hammasini uyga tashib olay", debdi. U xuddi shunday qiladi. O'zi xazinaning tepasida qolib la'l va javohirlar yuklangan ulovlarni uyiga yuboradi. Lekin yukni olib ketayotgan hiylakor odamlar boyliklarni u kishining uyiga emas, o'z uylariga olib borishni maqsadga muvofiqroq deb biladilar. U nodon kishi esa o'z manziliga kelganda pushaymonlikdan boshqa hech narsa topmaydi.⁴ Yana shunday haqiqatni bilish lozimki, foyda kitobni yodlashda emas, uni tushuna bilishdadir. Kimki bilmagan ishga yopishsa, uning ahvoli so'zni yodlab olgan, lekin ma'nosini tushunmagan odamning ahvoliga o'xshaydi. Kalila va Dimna⁵ning eng katta fazilati shundan iboratki, u yaratilganidan beri o'tgan barcha zamonlarda, xuddi kechagina yozilgan asardek, o'z ta'sir kuchini yo'qotmay keldi. Undagi hikmatlar, o'git va pandlar, ajoyib hikoyatlar, masal, maqol va matallar avlod lardan avlodlarga o'tib, yana-da keng shuhrat tutdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Kalila va dimna" hind og'zaki ijodi
2. Kalila va Dimna: Hikmatnoma, Suyima G'aniyeva tarjimasi. – Toshkent: Istiqlol, 1994, 256b

³ www.ziyouz.com kutubxonasi

⁴ www.ziyouz.com



3. Panchatantra, per. s sanskrita i prim. A.Ya. Sirkina, M, 1958; Panchatantra (I.G'afurov tarjimasi), T., 1993.
4. ¹ www.ziyouz.com
5. www.ziyouz.com kutubxonasi